

01/11-16-10-02

2026-yil 5-yanvar



“TASDIQLAYMAN”

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi boshlig'i

T. Ganiev

2026-yil 5-yanvar

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi tizimida 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
1	O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'RQ-419-son Qonunining ijrosini ta'minlash va davlat tashkilotlari uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirish	Statistika boshqarmasi tizimida Korrupsiyaning oldini olish va ushbu illatga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda qonunchilik hujjatlariga asosan ichki-idoraviy hujjatlarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish.	2026-yil Davomida	Idoraviy komissiya, A.Masheripova, tuman (shahar) statistika bo'limlari
2	O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida barcha xodimlardan o'rnatilgan tartibda tegishli deklaratsiyalarni olish, qonunchilik hujjatlariga asosan tekshirib borish hamda takliflar ishlab chiqish.	Statistika boshqarmasi tizimida ishlayotgan xodimlardan manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan tegishli deklaratsiyalarni olish; Qonunchilik hujjatlariga asosan tekshirib borish hamda takliflar ishlab chiqish.	2026-yil 30-yanvar	A.Masheripova, M.Jannazarov
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-son qarorining tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ishlarni samarali tashkil etish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash ishlari yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan "E-anticor" platformasiga belgilangan tartibda tizimda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Milliy statistika qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limiga taqdim etib borish	Har chorak yakunida	A.Masheripova, M.Jannazarov, R.Aekeeva

4	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatirlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-240-son qarorining tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ishlarni tashkil etish.</p>	<p>Statistika boshqarmasi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatirlarni aniqlash va baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligining 2022-yil 8-avgustdagi 3383-son qo'shma qaroridagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatirlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti" asosida amalga oshirilib har yili 1-martgacha Ishchi guruh tomonidan belgilangan talablar asosida baholashdan o'tkazish.</p>	<p>2026-yil 10-aprel</p>	<p>A.Masheripova, apparat bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>
5	<p>O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonuni, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan Davlat dasturlari va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda Milliy statistika qo'mitasi tomonidan qabul qilingan buyruq talablarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan amaliy chora-tadbirlarni tashkil etish.</p>	<p>Aholi, tadbirkorlik subyektlari, jumladan, statistika hisobotlarini topshiruvchi respondentlar, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi subyektlar va tizim xodimlari ishtirokida: - davra suhbatlari; - seminarlar; - konferensiyalar; - treninglar va boshqa tadbirlarni tashkil etish.</p>	<p>2026-yil davomida</p>	<p>A.Masheripova, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>
6	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan ko'rgazmali va boshqa tarqatma materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va boshqalar)ni tayyorlash va tarqatish.</p>	<p>1. Ko'rgazmali materiallar (plakatlar, bannerlar, fla'yer, risolalar, bukletlar, infografikalar va boshqalar)ni tayyorlash. 2. Tayyorlangan materiallarni aholiga, tadbirkorlik subyektlari vakillariga, davlat statistika hisobotini topshiruvchi subyektlar vakillariga tarqatish.</p>	<p>2026-yil davomida</p>	<p>A.Masheripova, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>

7	<p>Statistika boshqarmasi tizimi xodimlarining: - odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari; - o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish; - yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda halollik, xolislik, beg'arazlik tamoyillariga rioya qilishlarini ta'minlash; - loqaydlik va boshqa salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yish va ushbu illatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p>	<p>1. Xodimlar o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish. 2. Odob-axloq qoidalarini tushuntirishga, xodimlarning o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga, halollik, xolislik, beg'arazlik tamoyillariga rioya qilish va salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan seminar, davra suhbatlari tashkil etish.</p>	2026-yil davomida	A.Masheripova, M.Jannazarov,tuman (shahar) statistika bo'limlari
8	<p>Statistika boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari doirasida tizimli ravishda o'rganishlar olib borish.</p>	<p>Tuman (shahar) statistika bo'limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida joylarga chiqqan holda o'rganishni tashkil etish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish.</p>	2026-yil davomida	A.Masheripova
9	<p>Statistika organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish orqali jamoada korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat ruhini shakllantirish.</p>	<p>Statistika organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida har chorakda bir marotaba huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda seminar-trening va davra suhbatlarini tashkil etish.</p>	2026-yil davomida	A.Masheripova, M.Jannazarov,tuman (shahar) statistika bo'limlari

**Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari
bo'yicha mas'ul bosh yuriskonsult**



A.Masheripova